

**YOSHLARNI SOTSIAL MANIPULYATSION TA`SIRLARDAN
MUHOFAZA QILISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI**

Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna

*Buxoro davlat universiteti Psixologiya
kafedrasini dotsenti .p.f.f.d.(PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy yoshlarni monipulyatsion ta`sirlardan muhofaza qilishning psixologik mexanizmlarini rivojlantirish asoslari o`rganilgan. Shuningdek, yoshlarni sotsial manipulyatsion ta`sirlarga tushishni oldini oluvchi psixologik mexanizmlar hamda psixolog olimlarning ilmiyt-nazariy qarashlari keltirib o`tilgan.

Kalit so`zlar: intellekt, tafakkur, minipulatsiya, motivatsiya, tafakkur, xotira, xarakter, idrok.

Annotation: This article explores the foundations of developing psychological mechanisms to protect modern youth from manipulative influences. It also discusses the psychological mechanisms that prevent young people from falling under social manipulative influences, as well as the scientific and theoretical views of psychologists.

Keywords: intellect, thinking, manipulation, motivation, memory, character, perception.

Аннотация. В данной статье исследуются основы развития психологических механизмов защиты современной молодежи от манипулятивных воздействий. Также рассмотрены психологические механизмы, предотвращающие попадание молодежи под социальные манипулятивные влияния, а также научно-теоретические взгляды психологов.

Ключевые слова: интеллект, мышление, манипуляция, мотивация, память, характер, восприятие.

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari rivoji davrida yoshlarning ijtimoiy manipulyatsiyaga uchrashi keng tarqalgan holatga aylanib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari, reklama va boshqa kommunikatsiya kanallari yoshlar ongiga ta`sir ko`rsatishning eng samarali vositalariga aylanmoqda. Bunday manipulyatsion ta`sirlar yoshlarning qarashlari, qadriyatlari, xatti-harakatlari va hayotiy pozitsiyalariga salbiy ta`sir ko`rsatishi mumkin. Ayniqsa, rivojlanish bosqichidagi yoshlar ongida shakllanayotgan axloqiy, hissiy va ijtimoiy pozitsiyalarning manipulyatsiya qilinishi, ularning shaxsiy o`zini anglash jarayoniga putur yetkazishi ehtimoli yuqori.

Yoshlarni ijtimoiy manipulyatsiyadan himoya qilishda psixologik mexanizmlar muhim o‘rin tutadi. Bu mexanizmlar yoshlarning ongini mustahkamlash, ijtimoiy manipulyatsiyaga qarshi immunitet hosil qilish, tanqidiy tafakkur qobiliyatini rivojlantirish kabi omillarni o‘z ichiga oladi. Ta’kidlash joizki, mazkur mexanizmlarni shakllantirishda oila, maktab va boshqa ijtimoiy institatlarning roli beqiyosdir. Shu bilan birga, shaxsning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish, ijtimoiy tarmoqlar orqali ta’sir ko‘rsatuvchi axborotlarni tanqidiy qabul qilish qobiliyatini oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Yoshlarni sotsial manipulyatsion ta`sirdan himoya qilishda o`zbek olimlaridan M.G.Davletshin, V.M.Karimova, G’.B.Shoumarov, B.R.Qodirov, B.M.Umarov kabi olimlar o`z ishlarida tadqiq etganlar. Jumladan, V.M.Karimova shaxsning kasbiy kamolotida uning ijtimoiy ustanovkalarining ta’sirini va umuman har qanday faoliyatda ijtimoiy-psixologik omillarning ta’siri bo’lishini yoritib bergen. Bu jarayonda uning ijtimoiylashuviga alohida e’tibor qaratgan. Bugungi kunda O’zbekiston Respublikasida inson omiliga, uning jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilashga qaratilgan ko’plab normativ hujjatlar ishlab chiqilmoqda. Bu bilan inson shaxsi, salomatligi, ruhiy holati uning oilada, jamiyatda tutgan o’rni oliy qadriyat ekanligiga erishilmoqda. Insonlarning o’z ruhiy salomatligiga munosabatini barqaror qadriyat sifatida shakllantirish bugungi kunda muhim ijtimoiy vazifa ekanligi olma V.M.Karimova tomonidan ahamiyatga molik ekanligi ta’kidlab o’tiladi. Bugungi globallashuv jarayonida inson ruhiy salomatligiga ta’sir ko‘rsatuvchi bir qator omillarning mayjudligini e’tiborga olmasdan bo’lmaydi. Bular qatorida axborot ta’sirlari, manipulyatsion holatlar va undagi ranglarning inson ruhiyatiga ta’sirini alohida o’rganish zarur. B.M.Umarovning fikricha, axborotlarning psixologik xavfsizligi bu – shaxs, axborot yoki qiziqish uchun muhim bo’lgan hayotiy jihatlarning xavfsizligi, shuningdek shaxsga nisbatan psixologik tahdidlarning oldini olish qobiliyatidir.

R.S.Samarovning qarashlarida, ijtimoiy xavfsizlik – shaxsning atrof-muhit bilan o’zaro munosabati, shu jumladan shaxsning ijtimoiy muhitning salbiy ta’siridan o’zini saqlay olish ko’nikmasidir.

Muhokama. Axborot-psixologik xurujlarning bu turi so’z va ma’lumot orqali ta’sir etishdir. Bu ta’sir ko’pincha davlat boshqaruvi organlari yoki ommaga yo’naltirilgan bo’ladi. Ta’sir asosan aholi orasida bir-biriga ishonchsizlik, adovat hissi, o’zi yashab turgan joyi va davlat boshqaruvi tizimiga nisbatan norozilikni uyg’otishga qaratilgan. Axborot-psixologik xurujlarning asosiy ta’sir qurollari qo’rqtish, emotsional bosim ostiga olish, aggressiyani keltirib chiqarishdir. Unda insonga kuchli psixologik ta’sir etuvchi so’zlar tanlanadi va eng asosiysi yolg’on axborot berish bilan yakunlanadi.

Psixogen ta'sir. Bu insonga jismoniy (harorat, tovush, yorug'lik va boshqalar yordamida) va shok holatiga tushiruvchi ta'sir deyiladi. Masalan: internet orqali tarqatilayotgan ommaviy qирғи́н rasmlar yoki ayrim davlatlarning maxsus uskunalarini yordamida boshqa davlat telefon liniyalarida tovushni o'zgartirish, ranglar orqali ta'sir etish kabilari kiradi.

Psichoanalitik ta'sir. Insonning ong ostiga ta'sir deb aytildi. Bu ta'sir buyruq beruvchi so'zlar, rasmlar, hidlar, tovushlar orqali sodir bo'ladi. Aytaylik, OAV orqali odamlarga tushunarsiz musiqa, tovushlar uning ong ostiga kirib borish orqali ularni boshqarishi mumkin. Aniqrog'i, bu tovushlar kodlangan tarzda tarqatiladi.

Neyrolingistik ta'sir. Lingistik dasturlar yordamida yoshlarning motivatsiyasi o'zgartiriladi, bunda miya faoliyati buziladi.

Psixotron ta'sir. Shaxslarning anglanilmagan idrokiga yoki ong ostiga ta'sir etish usuli deyiladi. Bu usullar yuqori va quyi chastotali generatorlar orqali sodir bo'lib, inson miyasini kodlab qo'yadi. «25-kadr fenomeni» virusi esa bunga yaqqol misol bo'la oladi yoki «ko'k kit o'yini» aynan bu virus insonning psixofiziologik sohasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Salbiy ta'sirlar insondagi barcha sezgi kanallarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Psixotrop ta'sir. Insonning psixikasiga turli xildagi tibbiy preparat, kimyoviy va biologik moddalar yordamida ta'sir etish tushiniladi. Bundan tashqari poezd relslariga yuqori sirpanuvchan polimerlar to'kib qo'yish, samolyot uchish yo'llariga esa yuqori birikuvchan polimerlar to'kib qo'yish ham psixotron ta'sirni ifodalaydi.

OAV(ommaviy axborot vositalari) axborot xurujlar tarqalishining eng asosiy maydoni hisoblanib, unda namoyish etiladigan ayrim kinofilmlar o'ziga xos emotsiyal viruslarga ega. Bulardan 666 virusi bo'lib, 666 bayt hajmdagi ranglar ketma-ketligi 25-kadrda qo'llaniladigan kompyuter virusi hisoblanadi. Odatda, bu virus insondagi yurak ritmining o'zgarishiga va kichik qon aylanish tizimida arterial bosimni o'zgarishi – bosh, qo'l va oyoq barmoqlarida qon aylanishini to'xtashiga olib keladi.

Inson o'ng miya yarim shari kechki va tunggi paytlarda faollashadi. Lekin o'ng miya faoliyatida nazorat funksiyasi quyi bo'ladi. Oqibatda ta'sir o'tkazilayotgan davlatning axborot kanallari filtridan o'tmagan filmlar butun bir boshli ommaning ruhiy shikastga yuz tutishiga sabab bo'ladi.

Xulosa. Yoshlarni ijtimoiy manipulyatsiyadan himoya qilishning psixologik mexanizmlarini takomillashtirish muhim va dolzarb masala bo'lib, bu nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatning kelajagini ta'minlash uchun ham zarurdir. Ijtimoiy manipulyatsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish orqali yoshlar o'ziga nisbatan yanada mas'uliyatli, tanqidiy fikrlovchi va mustaqil qaror qabul qila oluvchi shaxslar bo'lib yetishadilar.

Ta'lim tizimi, oila va boshqa ijtimoiy institatlarning faol ishtiroki bilan yoshlar ongida tanqidiy fikrlash, o'z qarashlariga asoslangan pozitsiyani mustahkamlash va ijtimoiy manipulyatsiyaga qarshi turish qobiliyati rivojlanadi. Bu jarayon yoshlarning shaxsiy o'sishini qo'llab-quvvatlaydi, ularning atrof-muhitdagi axborotga bo'lgan munosabatini sog'lomlashadiradi va manipulyatsiyaga uchrash ehtimolini kamaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimova V. Milliy istiqlol g'oyasini xalqimiz ongiga singdirish omillari va vositalari. – Toshkent: O'AJBNT, 2002.
2. Кулатова С.Ю. “Ахборотлашган жамиятда ёшлар психологиясига таъсир этувчи омиллар”. “Мустақиллик йилларида ижтимоий-гуманитар фанлар тизимининг такомиллашуви ”мавзусида республика илмий-амалий анжумани материали. Тошкент.-2018,45-47 б.
3. Samarov R., Qodirov U. Shaxsning psixologik himoyasi – barqa-rorlikni ta'minlash asosi. //“Ta'lim muammolari” jurnali, 2010, №1.
4. Умаров Б.М. Очиқ ахборот тизимларида ахборот-психологик хавфсизлик. Ўқув қўлланма. Т.: 2013. – 225 б.
5. S.B.Qosimova “O'smirlik davridagi o'quvchilarda ijtimoiy intelekt muammosining psixologik xususiyatlari” "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - Volume 2 Issue 4 / December 2021.554-559 p
6. S.B.Qosimova “Emotional understanding of individuals the role of emotions” ResearchJet Journal of Analysis and Inventions ISSN: 2776-0960 Volume 3, Issue 1 Jan., 2022.12-18 p
7. S.B.Qosimova “Talabalarni manipulyatsion ta'sirlardan himoya qilishning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - Volume 2 Issue 2 / June 2022.438-442 p.
8. S.B.Qosimova “The role of the manipulation mechanism in the socialization of the student's personality” Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar 2023 №6. 319-321